



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2025-yil “7”-may

163-son

Toshkent shahri

**Vazirlik huzuridagi fan yo‘nalishlari bo‘yicha Ilmiy-texnik kengashlar
tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son hamda “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatda tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 25-yanvardagi PF-14-son farmonlari, “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 133-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi ilmiy-texnik kengashlar to‘g‘risidagi nizomda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Oliy ta’lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar hamda tarmoqlar tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan “Scopus” va “Web of Science” xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazalarida “Xirsh” indeksiga ega hamda yangi ilmiy yo‘nalishlarda xalqaro darajada ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanayotgan nufuzli olim va mutaxassislar tanlab olinganligi, shuningdek, xorijlik olimlarni ekspert sifatida jalb etilib ilmiy-texnik kengashlar tarkibi shakllantirilganligi va shakllantirilgan a’zolar ishtirokidagi yig‘ilishda ochiq ovoz berish yo‘li bilan raislar saylanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Fan yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy-texnik kengashlarning yangilangan tarkibi quyidagi ilovalarga muvofiq tasdiqlansin:

“Arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik” yo‘nalishi bo‘yicha Ilmiy-texnik kengash tarkibi 1-ilovaga;

“Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha Ilmiy-texnik kengash tarkibi 2-ilovaga;

“Biologiya va biotexnologiya fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha Ilmiy-texnik kengash tarkibi 3-ilovaga;

“Veterinariya va chorvachilik” yo‘nalishi bo‘yicha Ilmiy-texnik kengash tarkibi 4-ilovaga;

“Yer to‘g‘risidagi fanlar” yo‘nalishi bo‘yicha Ilmiy-texnik kengash tarkibi 5-ilovaga;

“Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha Ilmiy-texnik kengash tarkibi 6-ilovaga;

“Kimyo fanlari, kimyoviy texnologiya va nanotexnologiyalar” yo‘nalishi bo‘yicha Ilmiy-texnik kengash tarkibi 7-ilovaga;

“Matematika, fizika va mexanika fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha Ilmiy-texnik kengash tarkibi 8-ilovaga;

“Tarix va arxeologiya fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha Ilmiy-texnik kengash tarkibi 9-ilovaga;

“Texnika” yo‘nalishi bo‘yicha Ilmiy-texnik kengash tarkibi 10-ilovaga;

“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha Ilmiy-texnik kengash tarkibi 11-ilovaga;

“Farmakologiya va farmatsevtika” yo‘nalishi bo‘yicha Ilmiy-texnik kengash tarkibi 12-ilovaga;

“O‘rmon xo‘jaligi, tuproqshunoslik va o‘simliklarni himoya qilish fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha Ilmiy-texnik kengash tarkibi 13-ilovaga;

“Qishloq xo‘jaligi fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha Ilmiy-texnik kengash tarkibi 14-ilovaga;

“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi bo‘yicha Ilmiy-texnik kengash tarkibi 15-ilovaga;

“Pedagogika va psixologiya fanlari” bo‘yicha Ilmiy-texnik kengash tarkibi 16-ilovaga;

“Huquq fanlari” bo‘yicha Ilmiy-texnik kengash tarkibi 17-ilovaga;

“Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi” bo‘yicha Ilmiy-texnik kengash tarkibi 18-ilovaga;

“Farmasevtika va biotexnologiya” bo‘yicha Ilmiy-texnik kengash tarkibi 19-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ilm-fan va innovatsiyalar kengashi kotibi (N.Xolov) 3 kun muddatda buyruq bilan tegishli Ilmiy-texnik kengashlar a‘zolarining tanishtirilishini ta‘minlasin.

4. Mazkur buyruq ijrosining nazorati vazir o‘rinbosari O.Maxkamov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



K. Sharipov



Hujjat haqiqiyligini mobil qurilma
yordamida QR- kodni skaner qilish
orqali tekshirish mumkin